

O‘ZBEKISTON VA BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI HAMKORLIGI TARIXIGA BIR NAZAR

Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich

Ma’mun universiteti o‘qituvchisi

E-mail: allaberganov_ollabergan@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0002-8596-0926>

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari boshlanishi, rivojlanishi va sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilish masalalari tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, BMT, strategiya, xalqaro shartnoma, assambleya, mintaqaviy xavfsizlik, sammit, sessiya, rezolyutsiya, tashabbus.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblangan tinchlikni ta‘minlash va xalqaro munosabatlarda teng huquqli davlat sifatida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikka katta ahamiyat qaratadi.

Ma’lumki, o‘tgan davr ichida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini belgilovchi asosiy yo‘nalishlaridan biri - xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash hisoblanib jumladan, BMT bilan aloqalari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Darhaqiqat, 1992-yil 2-mart kuni mustaqil O‘zbekiston davlati dunyodagi eng nufuzli tashkilot - Birlashgan Millatlar Tashkilotining teng huquqli a‘zosi bo‘ldi, uning Nyu-York shahridagi qarorgohida mamlakatimizning davlat bayrog‘i hilpiray boshladi. 1992-yil 2-martda O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a‘zo bo‘lib dunyo miqyosida tan olindi. Bu voqea Respublikaning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatda munosib o‘rin egallashida ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. 1993-yil fevral oyiga kelib Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. Xolid Malik BMTning O‘zbekistondagi vakili etib tayinlandi [1].

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1995-yil BMTning ellik yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig‘ilishida so‘zlagan nutqida ham asosiy e‘tiborni bu tashkilotning faoliyatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, ekstremizm, terrorism, narkobiznesga qarshi kurash masalalariga qaratilgan edi.

2000-yil 8-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining “Ming yillik sammiti” da va 2010-yil sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining “Ming yillik rivojlanish” ga bag‘ishlangan majlisida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ilgari surgan tashabbuslari O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi adolatparvar siyosatidan darak berdi[2].

2002-yil 18-20- oktyabr kunlari BMT Bosh kotibi Kofi Annan, 2010-yilning aprel oyida Pan Gi Mun, 2017-yilning iyun oyida Antoniu Guttereshlar respublikamizga tashrif buyurishlari ham O‘zbekiston va BMT aloqalarining yangi bosqichga ko‘tarilishi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

2017-yil 19-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zladi. Mazkur nutq O‘zbekistondagi islohotlar, demokratiya, inson huquqlari, xalqaro xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik, ekologiya va umuman, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish masalalarini qamrab oldi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohang ekanligi namoyon bo‘ldi. Prezident Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi qabul qilish taklifi kiritildi. O‘zbekistonning bu taklifi BMT tashkilotiga a‘zo bo‘lgan 193 ta davlat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlandi. Bu esa xalqaro maydonda O‘zbekistonning sa‘y-harakatlariga berilgan yuksak e‘tirofdir[3].

Prezident Sh.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida “Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa nufuzli xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirish masalalari doimo e‘tiborimiz markazida bo‘ladi”... Kelgusi yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida “Inson huquqlari bo‘yicha ta‘lim” global forumi, yoshlar huquqlariga bag‘ishlangan Butunjahon yoshlar anjumani, diniy erkinlik masalalari bo‘yicha mintaqaviy konferensiyalarni o‘tkazamiz. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi bilan har yili 30-iyul – Xalqaro do‘stlik kuni sifatida keng nishonlanadi. Shu bois ushbu sanani O‘zbekistonda “Xalqlar do‘stligi kuni” deb belgilashni taklif etaman...[4], deb alohida ko‘rsatib o‘tganligi O‘zbekistonning BMT doirasidagi xalqaro tashabbuslarida yangi tendensiyalarni namoyon qildi.

O‘zbekiston BMTni zamonaviy talablar asosida isloh qilishga qaratilgan sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Yangi tashabbuslar va qo‘shma loyihalarni ilgari surish maqsadida O‘zbekiston tomonidan BMT bilan o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan “Yo‘l xaritasi” izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu hujjatdagi vazifalar to‘liq ro‘yobga chiqarilishi

mamlakatimizning BMT bilan munosabatlarini yanada yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Dunyoda kechayotgan hozirgi globallashtirish jarayoni insoniyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, o'zida turli tahdid va xavf-xatarlarni ham namoyon etmoqda. Ana shunday sharoitda davrimizning eng obro'li xalqaro tuzilmasi - BMT bilan tinchlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash yo'lida samarali hamkorlik qilish xalqimizning tub milliy manfaatlariga to'liq mos keladi. Bugungi kunda O'zbekistonda BMTning o'ndan ortiq dasturlari, jamg'armalari va agentliklari, bir qator ixtisoslashgan muassasalari faoliyat olib bormoqda.

Ta'kidlash joizki, 2020-yil 13-oktyabr kuni BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida bo'lib o'tgan saylovda O'zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor mazkur xalqaro tuzilmaning Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zolariga uch yil muddatga - 2021-2023 yillarga saylandi. Mamlakatimiz uchun BMTga a'zo 191 davlatdan 169 tasi ovoz berdi. O'zbekistonning teng huquqli a'zo sifatida Kengashning dastlabki uchrashuvida birinchi marta ishtirok etishi olamshumul va tarixiy voqealik bo'ldi[5]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Inson huquqlari bo'yicha kengashning 46-sessiyasida so'zlagan nutqida ilgari surilgan tashabbuslar bevosita O'zbekiston va BMT doirasidagi ikki tomonlama hal etiladigan masalalarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, shu tariqa O'zbekiston hamda BMT o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik muvaffaqiyat bilan ravnaq topmoqda[6].

2022-yil yanvar oyida qabul qilingan Yangi O'zbekistonni 2022–2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasida belgilab berilgan vazifalarni bajarish, respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamlil islohotlarni chuqurlashtirish jarayoni va barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish hamda ekologik muammolarni bartaraf etishga BMT va uning ixtisoslashgan muassasalarini faol jalb qilish hozirgi paytda mamlakatimizning BMTdagi doimiy vakolatxonasi oldida turgan muhim vazifalar sirasiga kiradi. Bu vazifalarning to'la amalga oshirilishi, shubhasiz, mamlakatimizning BMT bilan o'zaro manfaatli hamkorligi ko'lamlarini kengaytirishi barobarida O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rnini yanada mustahkamlaydi[7].

O'zbekiston BMTning teng huquqli a'zosi sifatida jahon miqyosidagi va mintaqaviy masalalarni hal etishda ushbu nufuzli xalqaro tashkilot bilan faol hamkorlik qilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy maqsadi davlat suverenitetini himoya qilish, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni to'la qaror toptirish uchun xalqaro sharoitlarni yaratish, tinchlik, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun barcha davlatlar bilan

teng huquqli hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi maqsadlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, mustaqillikning dastlabki kunlaridan O'zbekiston va BMT hamkorlik aloqalari ikki tamonlama manfaatlarning uyg'unligiga asoslangan holda yo'lga qo'yilgan. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston -2030" strategiyasida mamlakatimiz dunyoning barcha mamlakatlari bilan manfaatli hamkorlik qilishga va BMT hamda uning institutlari bilan amaliy muloqotga hamisha tayyorligi yana bir bor o'z tasdig'ini topgan. O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamkorligi izchil davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xoliqova R.E. O'zbekistonning eng yangi tarixi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: 2021. 170-bet
2. R.H.Murtazayeva, D.M.Inoyatova va boshqalar. O'zbekistonning eng yangi tarixi. – Toshkent, 2022. 249-bet
- 3.Rasulov M.F. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi – Farg'ona: Classik, 2023.156-bet
4. <https://president.uz/oz/lists/view/4057>
- 5.<https://yuz.uz/uz/news/xalqaro-hamjamiyatning-ishonchi-ragbati-va-etirofi>
6. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-va-bmt-hamkorlikning-ustuvor-yonalishlari>
7. <https://namangan.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=55709>